

**YOSHLAR O‘RTASIDA DELIKVENT (HUQUQBUZARLIK)XULQ-
ATVORNI OLDINI OLIHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

Kasimova Dilfuza Bag'bekovna
Xorazm viloyati Xazorasp tumani
34-son maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Maqolada voyaga yetmaganlar delikventlik profilaktikasi borasida umumta'lim maktablarining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar, deviant xulq-atvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika, nazoratsiz bola, korreksiya, profilaktika

KIRISH

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi masalasi faqatgina bir tashkilot zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, bu yo'nalishda tizimli faoliyatni olib borish maqsadga muvofiq bo'lishi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev —Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti, deb ta'kidlagan.

Umumta'lim maktablarida huquqbuzarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumiy (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika.

Umumiy (jamoaviy) profilaktika – bu o'quvchilarning umumiy jamoasiga qaratilgan, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o'quvchilarning huquqiy ongini o'stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir. Umumiy profilaktika tadbirlari doirasida har payshanba umumta'lim maktablarida profilaktika kuni o'tkazilishi va bu kunda maktab miqiyosida ommaviy tarbiyaviy profilaktik ishlarga o'quvchilarning katta qismi jalb qilinishi belgilangan.

Jumladan, O'quvchilar davomati va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish davra suhbatlari, Internetning salbiy ko'rinishlari-yoshlar tarbiyasiga ta'siri tadbirlari,

kelajakka sog'lom fikr bilan so'rovnomasi, jinoyatchilikning ildizlarini suhbat, Yoshlar va qonun mavzusida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlar, Jaholatga qarshi kurash mavzusida debat, bola tarbiyasiz tug'iladimi? mavzusida suhbat, "Ta'limni jinoyatlarsiz o'tkazamiz" shiori ostida tadbirlar majmui va boshqa ko'plab tadbirlar shular qatoridandir. Ushbu tadbirlar mahalla faollari, profilaktika inspektorlari, diniy tashkilot vakillari, yoshlar yetakchisi va boshqalar ishtirokida tashkil etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Huquqbuzarlik sodir etgan yoki xulqiy og'ishlari ijtimoiy havf ehtimolini yuzaga keltiradigan voyaga yetmaganlar umumta'lim maktablarining ichki nazoratiga olinishi belgilangan. Bunday o'quvchilar qatoriga ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan va muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilar, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlar, notinch oila farzandlari, tarbiyasi og'ir bolalar, ta'lim muassasalariga o'tkir tig'li ta'qiqlangan buyumlarni olib kelgan yoki olib kirishga uringan o'quvchilar va ijtimoiy havfli hattiharakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar kiradi. Umumta'lim maktablarida yakka tartibda ishlashda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan yoki qayta sodir etish ehtimoli bo'lgan bola barcha profilaktik tadbirlarning markazida bo'ladi.

O'quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas'ul xodim sifatida sinf rahbari, yoshlar yetakchisi, maktab psixologi, tajribali o'qituvchilardan bir nafari (zarur hollarda bir necha nafar) bo'lishi mumkin. O'quvchilar maktab ichki nazoratiga uch, olti, to'qqiz oy va bir yil muddatga olinadi, ushbu muddat o'quvchining xulqida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgunga qadar uzaytirilishi mumkin. Mas'ul xodimlar bolaning davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish, u bilan suhbatlar o'tkazish, bolaga turli sohada maslaxat va yordam berish, bolaning oilasi bilan muntazam aloqa qilish, bolani o'zi qiziqqan to'garakka biriktirish va boshqalarni amalga oshiradilar.

Huquqbuzarlik profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga roya qiladigan fuqarolarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida fan sifatida o'tiladigan —Huquqshunoslik darslari o'z o'rniga ega. O'quvchilarga huquqbuzarlik, huquqiy javobgarlik, jazo, jinoyat, huquqbuzarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi.

Ijtimoiylashuv va shaxsni shakllantirishda ta'lim tizimidagi ijtimoiy ish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning barcha bolalarga to'laqonli ta'lim bera olish qobiliyati - bu jamiyatning ijtimoiy sog'lomligining ko'rsatkichi va uning barqaror rivojlanishining zaruriy shartidir. Zamonaviy jamiyatining o'zgaruvchan sharoitida

faqat mustahkam ta'lim insonga o'z mavjudligini ta'minlashga va ijtimoiy, kundalik, kasbiy, mehnat va ijtimoiy funksiyalarni bajarishga imkon beradi. Bugun to'laqonli (boshlang'ich, o'rta, kasb-hunar) ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan kishi ertaga o'zini o'zi ta'minlay olmaydiganlar qatoriga qo'shilib, jamiyatning boqimandasiga aylanishi mumkin.

Pedagogika, shu jumladan ijtimoiy pedagogika, umumta'lim maktablarida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik sabablari va manbalarini o'rganish hamda jinoyatchilikning kamayishini ta'minlaydigan bunday profilaktika dasturini yaratish uchun zarurdir. Deviant xatti-harakatlarning oldini olishni tashkil qilish jarayonida ijtimoiy pedagogning vazifasi voyaga yetmaganlar bilan munosabatlarda haqiqiy hamkorlik va sheriklik muhitini yaratishdir. Ularning ixtiyoriy ravishda yordam so'rash prinsipi va yordam taklif qilish prinsipi bir xil darajada amal qiladi. Bolada deviant xatti-harakatlarning oldini olish jarayonida ijtimoiy pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: diagnostika; ma'lumot to'plash va tahlil qilish; o'qitish; ma'lumot berish; ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishda yordam berish; boshqarish. Ijtimoiy pedagoglar o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonlaridagi o'ziga xoslikni, individual xususiyatlarni o'rganib, xulqiy og'ishni boshidan o'tkazayotgan bolalarga amaliy yordam ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi bo'yicha umumta'lim maktablarida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Umumta'lim maktablarida psixologlarning malakasini muntazam oshirib borish va ular uchun ta'lim muassasasi hududida alohida xona ajratish.
- Maktab yoshlar yetakchilari shtatiga qo'shimcha ish o'rnini ajratish.
- Maktablardagi profilaktik ishlarga ijtimoiy ishchilarni jalb qilish. Bunda huquqbuzarlik sodir etish havfi ostidagi o'quvchi bilan birgalikda ularning oilasi bilan ishlash imkoniyati kengayadi.
- Umumta'lim maktablarida o'tiladigan huquq darslarida muammoli vaziyatlar-kazuslar ishlash amaliyotini kengaytirish. Bunda o'quvchilar nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribani uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.
- MMIBDO' bilan birgalikda maktab ichki nazoratiga olingan o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash hamda ularni to'garaklarga, seminarlarga jalb qilish amaliyotini takomillashtirish. O'quvchilarning genogramma va ekoxaritasini tuzishni yo'lga qo'yish. Bunda o'quvchilarning oila a'zolari va oila bilan aloqada bo'lgan tashkilotlar haqida yetarlicha ma'lumot olish imkonini yaratiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan —Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risidagi 2833- sonli Prezident qarori.
<https://lex.uz/docs/3141186>

2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.- T.,2010.,-
3. №39.
4. Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде». <https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-vpodostrukovoy-srede-3776595.html>
5. Internet materiallari